

TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA TIBBIY KIMYO FANINI O'QITISH JARAYONIDA USULLAR TIZIMINI QO'LLASH

G.G. Suleymanova, N.T. Alimxodjaeva, Z.O. Ikramova

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, Toshkent, O'zbekiston Respublikasi

Dolzarbligi

O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri "shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi"dir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi.

Maqsad va vazifalari

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimi, shu jumladan, oliy o'quv yurtlarining raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdagi rolini oshirish ko'p jihatdan mazkur ta'lim muassasalaridagi innovatsion jarayonlarni tizimli boshqarishga bog'liq bo'lib qolmoqda. Chunki innovatsion jarayonlarni tizimli boshqarish tibbiyot institutlarida o'quv jarayoni samaradorligini ta'minlash va yuqori salohiyatga ega kadrlarni tayyorlashning muhim omilidir.

Qo'llaniladigan usullar

Pedagogik texnologiyalar ko'p masalalarni qamrab oladi: jumladan, nazariy va amaliy kimyoning an'anaviy vositalari yordamida ko'rsatib bo'lmaydigan ko'pgina jarayonlarning dinamik modellarini kompyuter yordamida animatsiya qilib, multimedia mahsulotlari tayyorlash va ulardan foydalanib kompyuter darslarini o'tkazish va shu dasturga kiritilgan ta'lim mavzusiga oid test savollari yordamida talabalarning o'zlashtirish darajalarini aniqlash, dars jarayonida talabalarni faollashtiruvchi xorijiy davlatlar olimlari tomonidan ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan innovatsion texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, mavzuga oid Respublikaning tabiiy kimyoviy zaxiralari va ulardan kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni bayon etish, qadimiy Sharq mutafakkirlarining kimyoga oid meroslaridan va O'zbekiston kimyogar olimlarining kashfiyotlaridan darsda foydalanish va boshqalarni qamrab oladi.

Xulosa

Insonning boshqa mavjudotlardan farqi – oldiga ma'lum bir maqsad qo'yib, so'ng unga tomon harakat qilishidadir. Kishi maqsadi sari qiladigan harakati (faoliyati) jarayonida muayyan tabiiy va sun'iy to'siqlarni yengib o'tadi. Bu to'siqlarni bartaraf etish uchun u bir qator tadbir va choralardan foydalanadi.

Maqsadga yetishda muayyan to'siqni yengib o'tish uchun qo'llaniladigan tadbir va choralar majmui usul deyiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Икрамова, З. А., Н. Т. Алимходжаева, and С. С. Гулямов. "Ўқитиш жараёнида «график органайзерлар» ва «суд жараёни» интерфаол усулларида фойдаланиш." Современное образование (Узбекистан) 12 (2016): 56-62.

2. Алимходжаева, Н. Т., Г. Г. Сулейманова, and З. А. Икрамова. "Особенности обучения предмету «Медицинская химия» с использованием графических органайзеров." Современное образование (Узбекистан) 10 (2016): 52-59.

3. Абзалова, Шахноза Рустамовна, and Сурайё Хакимовна Икрамова. "Морфологические изменения в печени при интоксикации нитритами и нитратами в эксперименте." Молодой ученый 16 (2017): 15-17.

4. Турсунов, Д. Х., et al. "ВЛИЯНИЕ ЭКДИСТЕНА И ПРЕПАРАТОВ СРАВНЕНИЯ НА СОДЕРЖАНИЕ ФАКТОРА ФОН ВИЛЛЕБРАНДА И ЭНДОТЕЛИНА-1 ПРИ РАЗВИТИИ АЛЛОКСАНОВОГО ДИАБЕТА." Журнал теоретической и клинической медицины 2 (2018): 11-15.